



Yosh avlodda milliy ruhni, vatanga, onaga bo'lgan muhabbatni shakllantirish

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

oybekberkinov98@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

Abulov Asror Pardabekovich

Asror3789@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Vatanparvarlik tuyg'usi, tarbiyasi ota –onaga, o'z mahalla, qishlog'iga, shahar, viloyat va jamiyatga bo'lgan cheksiz muhabbatdan, uning tarixi va madaniyatiga bo'lgan mislsiz va tengsiz hurmat va sadoqatdan boshlanadi. Ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me'zonidir. Ahloq - kishining tabiati, muomala xatti-harakatdir.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ijtimoiy, tarixiy, axloqiy his- tuyg'u, urf – odatlar.:Vatan, tarbiya, ma'naviyat, ahloq, til, ona tili, millat, xalq, maktab, bola, ta'lim.

Abstract: The feeling of patriotism, education begins with the boundless love for parents, one's neighborhood, village, city, region and society, with unparalleled and unequalled respect and loyalty to its history and culture. Spirituality is an incomparable force that calls a person to spiritual purification and spiritual growth, strengthens the inner world



of a person, strengthens his will, completes his faith, awakens his conscience, and is the criterion of all his views. Morality is the nature of a person, behavior is behavior.

Key words: patriotism, social, historical, moral feeling, tradition - customs.: Motherland, education, spirituality, morality, language, mother tongue, nation, people, school, child, education.

Абстракт: Чувство патриотизма, воспитание начинается с безграничной любви к родителям, своему району, деревне, городу, региону и обществу, с беспримерного и непревзойденного уважения и верности его истории и культуре. Духовность — несравненная сила, призывающая человека к духовному очищению и духовному росту, укрепляющая внутренний мир человека, укрепляющая его волю, довершающая его веру, пробуждающая его совесть, являющаяся критерием всех его взглядов. Мораль — это природа человека, поведение — это поведение.

Ключевые слова: патриотизм, социальное, историческое, нравственное чувство, традиция – обычаи.: Родина, воспитание, духовность, нравственность, язык, родной язык, нация, народ, школа, ребенок, воспитание.

Odamzot dunyoga kelibdiki, hayoti davomida doimiy ravishda ma'lum bir narsalarga his-tuyg'ularga ehtiyoj sezadi va ushbu ehtiyojlarini o'zi bilib-bilmagan holda ba'zan qisman, ba'zan esa to'liq bir shaklda to'ldirib yashaydi. Bu so'zlarga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi. Ma'naviyat -moddiy hayot bilan yonma-yon yuradigan, xalq va jamiyathayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa. Tarbiya -rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish, o'rgatish, ilm berish. Ta'lim, axloq-odob va shu kabilarni o'rgatib singdirib insonni voyaga yetkazish. Har bir kasbning o'z quroli bo'lganidek ma'naviy-axloqiy tarbiyaning qurollaridan biri bu so'z -o'z ona tilida jaranglagan so'zdir. Bu fikrga



kelishimizga sabab, aynan ma'naviyatimiz va axloqimizni sayqallab, yuksaltirib borayotgan har qanday vosita, avvalo, ona tilimizda shakl-u shamoyil oladi. Shundan ekan ona tilimizda ruhiy qudrat bor. Yosh avlodda milliy ruhni, vatanga, onaga bo'lgan muhabbatni shakllantiradigan, uni asrab-avaylaydigan ichki xis tuyg'ular, avvalo, ona tili yordamida singdirilishi hech kimga sir emas, albatta. Buning sababini tilshunos olimlarimiz quyidagicha ifodalaydi: Til xalq-ning, millat ruhining betakror va hech zamonda xira tortmas ko'zgusi hisoblanadi. Har bir tilda shu til egasi bo'lgan millatning saviyasi, ruhiyati aks etadi. Shuning uchun ham bolaning tili ona tili sifatida chiqib, ona tili sifatida kamol topgandagina uning shuurida tom ma'nodagi milliy ruh barqaror bo'ladi. Yosh avlod ma'naviy-ahloqiy tomondan dunyoga kelgan kundanoq tarbiyalanib boradi. Chunki ma'naviy-ahloqiy jihatda tarbiyalash-ning ilk uchqunlari go'dak dunyoga kelib onasini ko'rgan paytdanoq boshlanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, ona tili bola ongiga ona allasi-yu, ona mehri bilan singadi. Negaki, aynan go'dak uchun ona tili bilan aytilgan ona allasi, uning erkalashlari tarbiyaning buturiga zamin bo'ladi. Bejizga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov " Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili -bu millat ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" deb bot-bot ta'kidlamagan. Yuqoridagi so'zlar-ga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar" -deyilgan. Demakki, o'zligini yo'qotgan millatda aynan ma'naviy-ahloqiy tarbiya yetarli bo'lmasligini yana bir bor anglaymiz. Bejizga biz ona vatan, ona tuproq, ona tili deb atamaymiz, chunki ular kishi hayotida boshqa narsalar bilan tenglab bo'lmay-digan, qiyoslanmaydigan bebaho qiymatga ega bo'lgan tushunchalardir. Kishi uchun kindik qoni to'kilgan joy ona vatan bo'lganidek, ilk bor ma'lum ma'noga ega bo'lgan so'z aytgan tili uning uchun ona tili deb ataladi. Dunyoga keltirgan zot ona, biz tug'ilgan makon Vatan bitta bo'lgani kabi til ham yagonadir. Shuning uchun ham barcha xalqlar o'z tilini ardoqlab ona tili deb ataydi. Kishining vatani, kindik qoni to'kilgan makon, uni o'z vatanida bog'lab turganidek xuddi ona tili ham uning o'zligini eslatib



turadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir narsa kishi uchun ma'lum ma'noda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shunday ekan biz o'zbek millatining o'z ona tilimiz, o'zbek tili, ham o'zining talaygina tarbiyaviy ahamiyatiga ega. Buni biz tilimizning boy imkoniyatlarida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani mustaqilligimizga qo'yil-gan ilk qadam bo'lganidek, ona tilini mukammal o'rganish kishining barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun ilk bosqichdir. Bugungi kunda chet tillarini bilish zamon talabi bo'lib borayotgan bir davrda ona tilini bilmasdan hech qanday tilni o'rganish mumkinmasligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Chunki har qanday chet tilini biz, avvalo, ona tilimiz orqaligina o'rganishimiz mumkin, qolaversa, o'z tilida tushuncha va predmet birligini bilmagan kishi o'zga tilni o'rganishi mumkin emas. Til -millatning ma'naviy boyligi bo'lishi bilan bir qatorda xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi hamda tarixi hamdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyev "Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – ma'naviy goyamizning poydevoridir" asarida "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" deya ta'kidladilar. Darhaqiqat, vatanga muhabbat –eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik hissi bilan uyg'unlashib ketadi. Vatanga muhabbat hissi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy taraqqiyotini va ular tafakkurining aniq va obrazlilikini e'tiborga olgan holda ma'lum izchillik bilan tarbiyalab boriladi. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda vatanga muhabbat hissini ularga yaqin va tanish bo'lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bolalar bog'chasiga va bolalarni o'rab turgan tevarak –atrofga mehr –muhabbatni va ularga sodiq bo'lishni tarbiyalayotib, eng muhim ijtimoiy his bo'lgan vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi. Kichik yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi voqea, hodisalarning faqat tashqi belgilarini anglab oladilar. Ular Hayit, Navro'z bayramini hamma kishilar shodiyonalik, bilan



kutib olishalirni ko'radilar, bundan juda zavqlanadilar, ammo buning saboblari, natijalari bilan qiziqmaydilar. Ammo bu yoshdagi bolalar tevarak –atrofdagi kishilar mehnati, ularning bolalarga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklari bilan kattalar tanishtirib borsalar, aniq misollar orqali tushuntirsalar, ayni muddao bo'ladi. O'rta guruh bolalari ijtimoiy hayot voqealari bo'lgan kattalarning qishloq xo'jaligidagi, fabrikadagi, zavoddagi mehnatini, ular ko'pchilik manfaatini ko'zlab ishlayotganligi, shahar va qishloqlarni obod qilayotganligi, maishiy va uy –joy binolarini qurayotganligini tushunadigan bo'lib qoladilar. Katta va tayyorlov guruhi bolalari esa bizning jumhuriyatimizda har xil millat vakillari birga yashaydi degan haqiqatni ham tushunib oladilar. Kichik guruhda vatanga muhabbat hissi o'z uyiga, bog'chasiga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi. Bolalar ota –onalari va pedagoglar ularga qanday g'amxo'rlik qilayotganini ko'radilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo'lgan muhabbat yanada ortadi, ularning g'amxo'rliqi va himoyasiga ishonch hosil qiladilar. O'rta guruhda bolalar endi kengroq doiradagi kishilar bilan munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular ota –onalari va tarbiyachilardan o'z shahri, qishlog'i to'g'risida ko'p narsani bilib oladilar. Vazifa kishilarga bo'lgan muhabbat va mehribonlik tuyg'ularini ancha anglangan va ta'sirchan qilishdan iboratdir. Shu maqsadda tarbiyachi suhbatlardan, badiiy adabiyotlardan foydalanadi, rasmlar ko'rsatadi, ekskursiyalar uyushtiradi. Bolaning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olish, uning axloqiy tasavvurlari bilan konkret xatti –harakati o'rtasida qarama – qarshilik bo'lishi mumkinligini nazarda tutib, kishilarga nisbatan chinakam muhabbatni tarbiyalash uchun ularga yordam berish istagini (dasturxon yozib, stol tuzash, idish – tovoqlarni yuvishga yordam berish va shunga o'xshashlar) uyg'otishga alohida e'tibor berish kerak. Katta va tayyorlov guruhi bolalariga uyda onalariga, buvilariga va otalariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam berganliklari to'g'risida suhbatlashiladi. Onaga hurmat va muhabbatni tarbiyalashda 8 mart bayramini uyushtirish yaxshi yordam beradi. Bu kuni bolalar va tarbiyachilar she'rlar o'qiydilar, ashulalar ijro tishadi, onalari haqida hikoya qilib berishadi. Vatanparvarlik hammaga ma'lum va ma'lum tamoyil bo'lib, bu insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni



asrab-avaylashga intilishini anglatuvchi axloqiy tushunchadir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash o'z dolzarbligini yo'qotmagan masala. Vatanparvarlik tamoyili xalqning Vatan tushunchasini fidokorona idrok etishi, u yoki bu hududga muhabbat kabi omildir. Bu tamoyil xayoliy tuyg'u emas, balki ma'lum bir vaqtga, ma'lum vatandoshlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy harakatlar majmuidir. Vatanparvarlik ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida emas, balki muayyan muhitda shakllanadi. Insonda vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi, ego emas, qabul qiladi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy taraqqiyotga norozilik sifatida shakllangan ijtimoiy tuyg'udir. Vatanparvarlik - odamlarning ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy fazilatlarining yuksak namoyonidir. Chunki ix asosi ajdodlardan meros bo'lib qolgan zaminga muhabbat, an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, el-yurt manfaati yo'lida fidokorona mehnat qilish, Vatanni g'animlardan asrash, uni har qanday qaramlikdan ozod qilish, kerak bo'lsa, uning uchun jon fido qilishdir. erkinlik. va mustaqillik.. fidoyilik kabi ezgu g'oyalar mavjud. Ayni paytda yoshlarimizni vatanparvarlik tuyg'usi bilan tarbiyalash, ularga Vatan mazmun-mohiyatini chuqur anglashni o'rgatish, vatanparvarlik yuksak axloqiy tamoyil, qonuniy va asosiy ma'naviy qadriyatlarimiz ekanligini tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligini ta'minlashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir. Milliy-vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan teran tafakkurli yoshlarni tarbiyalash milliy o'zlikni anglashning asosiy omilidir. Binobarin, Vatan himoyasiga tayyorlanayotgan har bir yoshimiz yuksak vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalanishi zarur. Vatanparvarlik esa ijtimoiy hayotimizning eng muhim qismidir, shuning uchun u ijodiy va rivojlangan bo'lmaydi. Bu hayotiy haqiqat bugun biz amal qiladigan tamoyilga, jamiyat taraqqiyotining asosi va shartiga aylanishi, pirovardida qishloq tuzumini o'zida mujassamlashtirmog'i lozim. Tizim markazida esa ma'naviyat, axloq va ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar bo'lishi kerak. Yoshlarning barcha sohalarda o'zini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodda yuksak ma'naviyat, Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat tuyg'ularini



tarbiyalash, ongi va ongini zararli yot g'oyalardan asrash alohida vazifa sifatida belgilangan. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yetti yoshdan boshlanishi kerak. Chunki oila jamiyatning bir qismidir. Shunday qilib, oila jamiyatni zarur kadrlar bilan ta'minlaydi. Bola oilada o'sadi. Voyaga yetishning ta'lim-tarbiya jarayonida oilaviy maktabning roli bir xil emas. Oilaga, ota-onaga, yaqinlarga mehr va ishtiyoq keyinchalik butun "Vatan" muhabbatida gavdalanadi. Binobarin, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar yoshlarning ma'naviy yuksalishiga imkoniyat yaratadi. Hozir ham farzandlarim, nabiralarimning ertaklarini chizaman, milliy ertak, rivoyat va rivoyatlardan foydalanib, bir gapni yetkazaman, hikoya qilaman, oilamni o'zgartirmayman, xotinimga uning yeridan bir parcha o'qib beraman. muqaddas deb, ajdodlarimiz ma'naviy merosidan Vatanimiz kelajagi mevasini yaratishda foydalanish. Shiroqiy, To'maris, Alpomishlarning alohida jasorati esa asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash va bardavom etishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim va tarbiya vatanparvarlik va yoshlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Ayni paytda oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek, oliy o'quv yurtlari faoliyatiga halollik tamoyilining tatbiq etilishi vatanparvarlik tuyg'usini yanada yuksaltirishga olib kelmoqda. Vatanga muhabbat tuyg'usi jamiyat ma'naviy shakllanishining chuqur ildizlarini ochib beruvchi o'ziga xos kalitdir. Zero, insoniylikning eng muhim fazilati insonning Vatanga muhabbati bilan belgilanadi. Yoshlarga har sohada o'zlarini namoyon qilishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Har bir yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ona-Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongi va shuurini zararli yot g'oyalardan himoyalashga alohida vazifa sifatida qaralmoqda. Buyuk ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan Vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimizga, bugungi va kelajak avlodlarga bo'lgan chinakam mehr-muhabbatning ko'zgusidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlar qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g'urur kabi g'oyalarni singdirish orqali milliy o'zlikni anglashga



erishish oldimizda turgan asosiy vazifadir. Ma'lumki, bugun dunyo ayvonida vaziyat o'ta murakkab. Barchamiz turli qarama-qarshilik va ziddiyatlar, kerak bo'lsa, to'qnashuvlar guvohi bo'lib turibmiz. Mana shunday sharoitda O'zbekiston qanday yo'l tutishi kerak, degan tabiiy savol tug'iladi. Majlisda davlatimiz rahbari aniq va lo'nda qilib aytganidek, bosh maqsadimiz — O'zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sarhadi daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yana-da mustahkamlashdan iborat bo'ladi. Chunki har qanday davlat uchun, har qaysi xalq uchun tinchlik va osoyishtalik eng aziz ne'mat hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimizda yoshlarga bo'layotgan e'tibor kelgusi yetti yilda yana-da kuchayadi. Pirovardida ertamiz egalari bo'lgan yoshlarimiz o'zlarini har jabhada to'liq namoyon etadi. Bunga ishonchimiz komil. Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik — yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish ma'naviy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi. Vatan mustaqilligini ta'minlashda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, alohida o'rin egallaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi davr talabidir. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usining barq urishida ta'lim va tarbiyaning uzviyligi muhim o'rin tutadi. Bunda, oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oliy o'quv yurtlari faoliyatida uzviylik tamoyilining tatbiq etilishi vatanparvarlik tuyg'usining yanada takomillashuviga olib keladi. Vatanga muhabbat tuyg'usi — bu jamiyatlardagi ma'naviy shakllanishning chuqur ildizini ochib beruvchi o'ziga xos kalitdir. Zero, insoniylikning eng muhim fazilati kishining Vatanga bo'lgan muhabbati bilan belgilanadi. Ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi farzandlarimiz, bugungi va kelajak avlodlarimiz uchun chinakam e'tiqod va muhabbatning in'ikosidir. Oldimizda turgan asosiy vazifa — yoshlar ongida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, milliy g'urur kabi g'oyalarni chuqur singdirgan holda milliy o'zligini anglashga erishishdir. Har bir davrda yuz beradigan voqea — hodisalar bolalarga bevosita va bovosita ta'sir etadi. Bunday voqea — hodisalar to'g'risida tarbiyachining bolalarga mohirona hikoya qilib berishi vatanparvarlikni tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari –T.: 2009
2. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. —T.: RTM, 2000. —46 b
3. G‘ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). – T.: 2009.–106 b.
4. G‘ulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta'lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009
5. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.
6. G‘ulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). – T.: 2009.– 106 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.b
8. Sh.M.Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – ma’naviy goyamizning poydevoridir”– «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent – 2021y 3. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 2012.